

Тадқиқот давомида қулупнай ва ҳўжағат экини экилган майдонларнинг барчасида **моллюскалар** (Mollusca) — умуртқасиз ҳайвонлар типи, қориноёқли моллюскалар (Gastropoda) синфи, (Agriolimacidae) оиласига мансуб дала шиллиқ курт- (*Agriolimax agrestis* L.) ҳамда тўрли шиллиқ курт- (*A. reticulatus* Miill.) ҳам учраб ўсимликнинг барглари ва меваларини зарарлаётгани кузатилди.



6-расм. Дала шиллиқ курт- (*Agriolimax agrestis* L.) ҳамда Тўрли шиллиқ курт- (*A. reticulatus* Miill.).

Шундай қилиб қулупнай экинлари агробиоценози-да аниқланган зараркунандаларнинг асосий қисмини қаттиққанотлилар (*Coleoptera*) ҳамда тангача қанотлилар (*Lepidoptera*) туркуми вакиллари ташкил этади. Кейинги ўринда эса тенгқанотлилар (*Homoptera*) туркуми ва ўргимчаксимонлар (*Arachnida*) синфи каналар (*Acari*) туркуми вакиллари ҳамда моллюскалар (Mollusca) типи қориноёқли моллюскалар (Gastropoda) синфи, Pulmonata туркумига мансуб зараркунандалар ташкил этмоқда.

Хулоса шуки, қулупнай экиладиган майдонларда кузатув ва доимий назоратни олиб бориш жуда муҳимдир. Чунки қулупнай кўп ҳолларда тўғридан-тўғри истеъмол қилинади ва агарда кимёвий кураш чораларини ўринсиз ва ҳосил пишишига яқин қўлланилса салбий оқибатларга олиб келиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Абдуллаев Р.М., Абдуллаев Х.Р. Фермер ҳўжаликларида резавор мевалардан юқори ҳосил олиш агротехникаси (Тавсиянома).-Тошкент, 2011. -1-12 б.
2. Абдуллаев Х.Р. Ўзбекистонда ертути ўсимлиги (Қулупнай). 2017. –с. 1-17 б.
3. Абдуллаев Р.М., Абдуллаева Х.Р. Резавор меваги ўсимликлари. Тошкент. 2020.
4. В.Ф. Белов, И.И. Чухляев. М. Земляника. / Агропромиздат, 1989. -С. 39.
5. Белов В.Ф. Земляника. С.-Петербург, 2020. Т. 91: 129–140.
6. Киртбая Е.К., Щеглов С.Н. Земляника. Краснодар: Северо-Кавказский зональный НИИ садоводства и виноградарства. 2003.
7. Хўжаев Ш.Т., Сулаймонов О.А. Умумий ва кишлок ҳўжалик энтомологияси ҳамда уйғунлашган ҳимоя қилиш тизимининг асослари. Тошкент. “Янги нашр нашриёти”, 2019. 195-198 б.

УО‘Т: 632.7.

ARCHA UNSIMON QURTIGA QARSH XONQIZI QO‘NG‘IZLARINI KO‘PAYTIRISH VA QO‘LLASHNING SAMARADORLIGI

Xasanova Shaxnoza Firdavsiy qizi,
O‘simliklarni himoya qilish sohasi mutaxassisi.

Аннотация. В статье приведены краткие сведения о технологии и биологической эффективности жуков-энтомофагов в защите хвойных растений от елового мушкетера, вредителя, встречающегося на территории Узбекистана.

Ключевые слова: хвойные, можжевельниковый мушкетер, сосновый жук, парехохомус, биологическая эффективность

Annotation. The article provides brief information about the technology and biological effectiveness of entomophagous beetles in protecting conifers from the spruce mealworm, a pest found in the territory of Uzbekistan.

Keywords: conifers, juniper mealybug, pine beetle, parechovirus, biological effectiveness

Kirish. So‘ngi yillarda respublikamizda manzarali igna bargli daraxtlarga jumladan archa, qarag‘ay, qora qarag‘ay va boshqa ko‘plab manzarali daraxtlarga qiziqish uyg‘onmoqda va respublikamizning ko‘plab sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan ochiq yer maydonlariga archa ko‘chatlari ekilib o‘rmon zo‘nalariga aylantirilmoqda.

Ma‘lumotlarga qaraganda igna bargli daraxtlar turkimi hisoblanmish archalar nafaqat is gazini qabul qilib, toza kislarodga aylantiradi. balki zarasiz fitonsit moddalar ajratish bilan ahamiyatli bo‘lib, yuz ming kishilik shahar aholisining fitansid moddalarga

bo‘lgan ehtiyojini 1,0 gektar maydondagi igna bargli daraxtlar qoplashi mumkin ekan.

Bugungi kunda mamlakatimizda tabiiy sharoitida ko‘kalamzorlashtirish maqsadida ekilgan ko‘plab archa ko‘chatlarimiz archa unsimo qurti bilan zaralanish holatlari kuzatimoqda va katta miqdorda zarar yerkazib archazorlarni achinarli holatga olib kelmoqda.

Tadqiqot uslublari. Kuzatuvlar natijiga ko‘ra, hozirgi paytda iqlim o‘zgarishi va haroratning me‘yordan ortiq darajada ko‘tarilishi tufayli “Archa unsimon” qurti zararkunandasi tez rivojlanib

ko'paymoqda. "Archa unsimon" qurti zararkunandasining lichinka va urg'ochilari archaning novdalari va barglarini so'rib zarar yetkazadi va ular barcha yer ustki qismlari bilan oziqlanadi. Kattaligi 2-3 millimetr bo'lgan bu qurt sarg'ish, qizg'ish, kulrang tusda bo'lib, mart-aprel oylarida paydo bo'ladi. Ularning tuxum qo'yishi may-iyun oylarida kuzatilib, o'rtacha 280 tagacha tuxum qo'yadi.

E-biologik samaradorlik

a-xon qizini chiqargungacha bo'lgan 100 ta shoxdagidagi archa unsimon qurtlar soni

v-xonqizini tarqatgandan so'ng 100 ta shoxdagi archa unsimon qurtlari soni

Tadqiqot Toshkent davlat agrar universiteti hududigi archa daraxti ko'chatlarida xonqizi entomafalarini 1:5, 1:10, 1:20 nisbatlarda qo'llab ko'rildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili: entomafaglar orasida xonqizi qo'ng'izlari alohida o'ringa ega bo'lib, ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonning sug'oriladigan yer maydonlarida 40 ga yaqin turi uchrayotgan ekan.

ni archa unsimon qurtiga qarshi qo'llab uni 1 :10, 1 :15, 1 :20 nisbatlarda qo'llab uning samaradorligini aniqladik.



1-pasm. Archa unsimon qurti bilan oziqlanayotgan xon qizi qo'ng'izi

Laboratoriya tajribalari asosida olingan natijalarga ko'ra, zararkunanda – kushanda nisbati 1:20 bo'lganda kuzatuvlarimizning 4 kuniga kelib samaradorlik 63,5% ni, 7 kuniga kelib esa 73,2%, 14 kuniga kelib 87,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 21 kuniga kelib eng yuqori bo'ldi ya'ni, 88,4% ni tashkil etdi.

1-jadval. Tadqiqotlar davomida

Archa unsimon qurtiga qarshi xon qizi qo'ng'izini (*Parexochomus nigromaculatus* Goeze) qo'llashning samaradorligi (Laboratoriya tajribasi 2021-2022 yy.).

Xonqizining archa unsimon qurtiga nisbati	Har bir shoxlardagi unsimon qurtlar soni o'rtacha					Biologik samaradorlik kunlar % bo'yicha			
	Xonqizi chiqarish-dan oldin o'rtacha	Xonqizi chiqarilgandan so'ng, kunlar bo'yicha							
		4	7	14	21	4	7	14	21
1:10	31	11.0	7.2	4.2	3.8	73.1	87.2	93.6	95.8
1:15	29,8	11.5	11.6	9.8	71.0	97.1	78.6	84.5	91.8
1:20	30,8	14.8	15.0	11.4	10.4	63.5	73.2	87.3	88.4
Nazorat:	31	41.2	56.4	66.0	91.5	-	-	-	-

Bizning tadqiqot tahlil natijalarimizga ko'ra Qibray tumani hududida 20 ta turi mavjud bo'lib *Parexochomus* turi archa unsimon qurtining foydali entomafag turi bo'lib uning lichinkasi va imago o'z o'ljasiga o'ch bo'lib juda ham chaqqon harakatlanib oziqlanadigan xo'randa hashoratdir.

Parexochomus igna bargli daraxtlarda tarqalgan archa unsimon qurti bilan faol oziqlanib hayot kechiradi *Parexochomus*

bo'lsa, 21 kuniga kelib eng yuqori bo'ldi ya'ni, 95,8% ni tashkil etdi.

Xulosa shuki, *parexochomus* archa unsimon qurtiga qarshi qo'llanganda 1:20 nisbatda qo'llanganda yuqori samara berishi aniqlandi. Bundan tashqari kuzatishlarimiz natijasini ayrim afidofag coccinellidlar va adolia turkumi vakillari ham ozuqa tanqisligi yuz berganda koksida-faglar oilasi vakili bo'lmish archa unsimon qutidan ajralgan shira bilan ham oziqlanar ekan.

ADABIYOTLAR:

1. X.X.Kimsanboev, B.A.Sulaymonov, R.A. Jumaev., A.A.Rustamov., A.R. Anorbaev, O.A.Sulaymonov. O'simliklarni biologik himoya qilish (o'quv qo'llanma) // - T: «O'zbekiston» NMIU, 2015. 192 b
2. Paliy V.F. Metodika fenologicheskix i faunicheskix issledovaniy nasekomyx. -Frunze. -1966.- 238 s
3. <https://agro-olam.uz>
4. <https://www.google.com>

ЎСИМЛИКЛАРНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ

UO'T: 632+632.9+631

ЎСИМЛИКЛАРНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ИЛҒОР, ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Нурмухамедов Дилмурод Набиевич,
Тагабаев Джанибек Джолдасбекович.

Аннотация: Мақолада Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Ўсимликлар карантини ва ҳимояси агентлиги тизимидаги айрим ташиқлотлар тузилмаларини тасдиқлаш тўғрисида” 2021 йил, 8-октябрдаги ВМК-628-сон қарори асосида қайта ташиқил этилган Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий-тадқиқот институтининг 2022-2024 йилларга мўлжалланган илмий-тадқиқот дастури “Йўл ҳаритаси”га киритилган айрим илғор ва инновацион ишланмалар, амалий лойиҳалар тўғрисида қисқача маълумотлар келтирилган.

Аннотация: В статье приведен ы краткие сведения о современных и инновационных разработках и прикладных проектах включенных в «Дорожную карту» разработанной согласно программы научно-исследований на 2022-2024 годы вновь переобразованном Институте карантина и защиты растений Постановлением Кабинета Министров от 10.08.2021 года «Об утверждении структур некоторых организаций в системе Агентства по карантину и защите растений Республики Узбекистан».

Annotation: The article provides brief information about modern and innovative developments and applied projects included in the “Roadmap” developed according to the research program for 2022-2024 by the newly reorganized Institute for Quarantine and Plant Protection by the Decree of the Cabinet of Ministers dated 10.08.2021 “On Approval structures of some organizations in the system of the Agency for Quarantine and Plant Protection of the Republic of Uzbekistan”.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил, 3-февралдаги “Қишлоқ ҳўжалигида билим ва инновациялар тизими ҳамда замонавий хизматлар кўрсатишни янада ривожлантириш тўғрисида”ги ПФ-6159 Фармони қабул қилинганлиги, соҳа ривожини учун муҳим қадам бўлди.

Ўзбекистон Республикаси қишлоқ ҳўжалигини ривожлантиришнинг 2020 - 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тўлақонли амалга ошириш, тадбиркорлик субъектларига илмий асосланган ахборот, замонавий хизматларни кўрсатиш, ишлаб чиқаришга илм-фан ютуқлари ва инновацияларни кенг жорий этиш, таълим, илм-фан, ишлаб чиқариш ва агрохизматлар кўрсатиш тизимининг узвий интеграциясини таъминлаш мақсадида қишлоқ ҳўжалигида билим ва инновациялар тизимини 2021 - 2025 йилларда устувор ривожлантириш Концепцияси тасдиқланди.

Концепция доирасида қишлоқ ҳўжалиги тармоқларида таълим, илм-фан, ишлаб чиқариш тизимларини ўзаро боғлайдиган Қишлоқ ҳўжалиги вазирлиги ҳузурида Қишлоқ ҳўжалигида билим ва инновациялар миллий маркази ташкил этилиб, унга қуйидаги йўналишлар:

қишлоқ ҳўжалиги соҳасида таълим, илм-фан ва ишлаб чиқаришнинг узвий интеграциясини таъминлаш;

қишлоқ ҳўжалиги соҳасида фундаментал, амалий ва инновацион тадқиқотларни амалга ошириш, олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш, илғор тажриба ва замонавий технологиялар асосида уларнинг малакасини ошириш, ҳамда бошқа бир қатор вазибалар юкланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси Ўсимликлар карантини ва ҳимояси агентлигини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-5185-

сонли қарори билан Агентликка фитосанитар хавфсизликни таъминлашда илмий, услубий ва таълим салоҳиятини ривожлантириш, замонавий инновацион ечимлар, режалаштириш ва бошқариш усулларини жорий этиш, илғор технологиялар ҳамда иш усулларини жорий этишда халқаро ҳамкорликни кенгайтириш, соҳада кадрларни тизимли қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш вазабалари юклатилган.

Агентлик тизимида қайта ташкил этилган Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий-тадқиқот институтининг илмий-ишлаб чиқариш фаолиятини ривожлантириш бўйича 2022-2024 йилларга мўлжалланган уч йиллик дастурининг “Йўл ҳаритаси” ишлаб чиқилди.

Институт томонидан халқаро лойиҳаларга қўшилиш, уларда иштирок этиш мақсадида Фитосанитар хавфни таҳлил қилиш ва баҳолаш бошқармаси билан ҳамкорликда тайёрланган “Пепино мозаика вируси” (Pepino mosaic virus PepMV) зарарли организм бўйича фитосанитар хавф таҳлили лойиҳасида келтирилган маълумотлар халқаро платформасидаги маълумотлар асосида, уларга таққосланган ҳолда ўрганиб чиқилмоқда.

Интернет <https://gd.eppo.int/> базасидаги халқаро фитосанитар стандартлар, янгиликлар ўрганилмоқда, лаборатория, дала тажрибалар ва тадқиқотлар олиб боришни жорийлаштириш бўйича ишлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигига тақдим этиш учун ўсимликлар карантин ва ҳимояси соҳасидаги долзарб муаммолар юзасидан амалий лойиҳаларнинг мавзулари тайёрланди. Жумладан, ўсимликлар карантини ва ҳимояси бўйича халқаро конвенция